

**TALABALARING TASHKILOTCHILIK MADANIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH JARAYONI**

**Kochkarova Dilnoza Axmadbayevna**

Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti, "Amaliy texnik kvalifikatsiyalar" fakulteti, "Materialshunoslik va zamonaviy innovatsion texnologiyalar" kafedrasi katta o'qituvchisi

**ПРОЦЕСС ПОВЫШЕНИЯ ОРГАНИЗАТОРСКОЙ КУЛЬТУРЫ  
СТУДЕНТОВ**

**Кочкарова Дильноза Ахмадбаевна**

старший преподаватель кафедры «Материаловедение и современные инновационные технологии», факультет «Прикладных технических квалификаций» Совместного Белорусско-Узбекского Межотраслевого института прикладных технических квалификаций в городе Ташкенте.

**THE PROCESS OF IMPROVING ORGANIZATIONAL CULTURE  
STUDENTS**

**Kochkarova Dilnoza Axmadbayevna**

senior lecturer department of technical disciplines faculty of applied technical qualifications joint Belarusian-Uzbek intersectoral institute of applied technical qualifications of the city of Tashkent

**Annotatsiya.** Texnika oliy ta'lif muassasalari talabalarida shaxsning muhim tashkilotchilik sifatlarini, jumladan, tashkilotchilik tafakkurini rivojlantirish uchun talab qilinadagin pedagogik yo'naltirilgan va tashkilotchilik madaniyatida xulq-atvor komponenti asosini tashkil etadigan shart-sharoitlarni tahlil qilganda talabalar tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishda shuningdek, faoliyatli yondashuvdan foydalanish kerak.

**Kalit so'zlar:** texnika oliy ta'lif muassasasi, tashkilotchilik tafakkuri, tashkilotchilik madaniyati, kompetensiya, faoliyatli yondashuv, komponentlar.

**Аннотация.** При анализе условий, составляющих основу педагогически ориентированного и поведенческого компонента организационной культуры, необходимых для развития важных организаторских качеств личности, в том

числе организационного мышления, у студентов технических вузов, необходимо использовать активный подход в повышении организационной культуры студентов.

**Ключевые слова:** технический вуз, организационное мышление, организационная культура, компетентность, активный подход, компоненты.


**Abstract.** When analyzing the conditions that form the basis of the pedagogically oriented and behavioral component of organizational culture, which are required for the development of the important organizational qualities of a person, including organizational thinking, in the students of technical higher educational institutions, it is necessary to use an active approach in improving the organizational culture of students.

**Key words:** technical higher education institution, organizational thinking, organizational culture, competence, active approach, components.

Talabalarning o‘zлari uchun tushunarli bo‘lgan jamiyat moddiy va ma’naviy-axloqiy boyliklarning taqsimlanishi, almashinishi va istemol qilinishi, oilaviy va ishlab chiqarish pedagogikasi haqidagi yaxlit tushunchaga ega bo‘lishi tashkilotchilik ta‘limi va tashkilotchilik tarbiyasi oliy ta‘lim muassasalaridagi tashkilotchilik tayyorgarligini o‘zida aks ettiradi. Ular talabalar tomonidan asosiy tashkilotchilik kompetensiyalarining o‘zlashtirilishi, zamonaviy tashkilotchilik tafakkurini takomillashtirish, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarga ongli kirishish kabi maqsadlarni ko‘zlaydi.

“Talabalarning tashkilotchilik madaniyati” tushunchasiga ta’rif berayotib, ta’kidlash zarurki, bugungi kunda uni insonga tashkilotchilik munosabatlari ob’ekti va subyekti sifatida ijtimoiy rollarni amlga oshirish imkonini beradigan, zamonaviy pedagogikada iste’molchi (ob’ekt) va rahbar (subyekt) sifatidagi ishtirokni ta’minlaydigan, umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Bu kabi kompetensiyaviy talqinning xususiyatlari: tashkilotchilik madaniyati uchta komponentni o‘z ichiga oladi (1-rasm).



**1-rasm. Tashkilotchilik madaniyatiga kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning tarkibiy qismlari**

Talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish jarayoni komponentlari sifatida uning prinsiplari, maqsadlari, vazifalari, mazmuni, shakllari va metodlarini ko'rsatish mumkin.

Texnika oliv ta'lif muassasalarida tashkilotchilik madaniyatini takomillashtiruvchi tizim komponentlari – tizimning vazifasi va tuzilmasi, kadrlar ta'minoti, tizimli boshqaruv tuzilmasi, moliyaviy, huquqiy va normativ me'yoriy ta'minot, talabalar tavsiyi, moddiy-texnik bazasidan iborat.

Pedagogik loyihalashtirish alohida rol o'ynaydi, bu – maqsadga muvofiq tanlab olingan komponentlar, shuningdek, ular o'rtasidagi munosabat va aloqalarni belgilashki, ular tashkilotchilik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Tashkilotchilik madaniyatini shaxs darajasida olib qaraydigan bo'lsak, uning zamonaviy adabiyotlarda aks ettirilgan quyidagi ko'rsatkichlarini ajratish mumkin:

- kommunikatsion (muloqot);
- kognitiv (bilimlar);
- baholash-refleksiv (o'zini o'zi baholash);
- mazmunli-operatsion (malakalar).

Boshqa ko'rsatkichlar orasida, shuningdek, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- pedagogik va ijtimoiy xatti-harakatlar (amallar) jarayonida muloqot shakli va uslubi;
- tashkilotchilik yo'nalishidagi bilimlar;
- intellekt;
- ko'nikma va malakalar.

Shaxsning tashkilotchilik madaniyatini belgilaydigan yana bir ahamiyatlari ko'rsatkich o'zining individual qobiliyatlarini turli vaziyatlarda amalga oshirish qobiliyati.

Bu ko'rsatkichni rivojlantirish uchun inson doimo tashkilotchilikka oid bilimlarini to'ldirib borishi, shuningdek, faoliyat sohasini, o'z tasavvurlari, qarashlari va shaxsiy manfaatlarini o'zgartirishga tayyor bo'lishi kerak.

Shaxs tashkilotchilik madaniyatining yana bir muhim ko'rsatkichi tashkilotchilik tajribasi hisoblanadi.

Shaxsning tez-tez takrorlash natijasida avtomatizm darajasiga yetkazilgan, bexato va tez bajariladigan harakatlari tashkilotchilik ko'nikmalar deb ataladi. Tashkilotchilik faoliyatiga oid foydali ko'nikmalar, masalan, tahlil qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, kompyuter dasturlari bilan ishlash kabilardir. Maxsus

ko‘nikmalar mehnat ob’ektini to‘g‘ri tanlash, ishchan muloqot olib borish, ishni tashkil qilish va rejallashtirish uchun zarur.

Tashkilotchilik malakalari deganda shaxsning tashkilotchilik ko‘nikmalari asosida tashkilotchilik faoliyatini, jumladan, alohida tashkilotchilik harakatlarini bajara olish qobiliyati tushuniladi. Har bir inson o‘zining ish vaqtini va o‘rnini tashkil qilish, ishni bajarish algoritmini qurish va sh.k. uddalashi kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTAR RO’YXATI.**

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство: Учеб. пособ. для магистратуры всех специальностей /Н .Н. Азизходжаева; [Под общ. ред. Б.Г. Кадырова]; М-во высш. и сред. спец. образования Республики Узбекистан. — Т.: Издательско-полиграфический творческий дом имени Чулпана, 2005. - 200 с.

2. Акбаров Н. Техника олий таълим муассасаларида касбий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асослари. Диссертация. Тошкент 2008. Б -130.

3. Карпова А.Л. Формирование организаторских качеств педагога в процессе профессиональной подготовки : Дис. ... канд. пед. наук. – М., 2010. –230 с.

4. Мунаваров А.Х. Педагогика : Учеб. пособ. для пед.инс. –Ташкент: Ўқитувчи, 1996. –360 с.

5. Кочкаровой Да.А. Технология формирования организаторской культуры студентов технических вузов. Методическое пособие для студентов технических вузов. Ташкент 2022. 79с.а